

BILINGVIZM LISONIY INTERFERENSIYA OMILI SIFATIDA

Y.Yormatova

Farg‘ona viloyati PYMO‘MM

*Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

ANNOTATSIYA: Maqola tilshunoslikning til kontaktlari, bilingvizm, o‘zlashmalar masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, mazkur tushunchalar borasidagi fikrlar, ilmiy izlanishlar turli xil manbalar asosida jamlangan hamda bir tizim doirasida tahlilga tortilgan.

TAYANCH IBORALAR: *til kontakti, bilingvizm, paradigma, interferensiya, o‘zlashmalar, konvergensiya, diglossiya, kalka.*

ANNOTATION: The article is devoted to the issues of language contacts, bilingualism, knowledge in linguistics; opinions and scientific research on these concepts are collected on the basis of various sources and analyzed within the framework of one system.

KEY WORDS: *language contact, bilingualism, paradigm, interference, borrowing, convergence, diglossia.*

АННОТАЦИЯ: Статья посвящена вопросам языковых контактов, двуязычия, знаний в лингвистике, мнения и научные исследования по этим понятиям собраны на основе различных источников и проанализированы в рамках одной системы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *языковой контакт, билингвизм, парадигма, интерференция, взаимодействия, конвергенция, диглоссия, калька.*

Bilingvizm hodisasi tilshunoslikda o‘ziga xos ilmiy paradigmaga ega. Bilingvizmning mohiyati til kontaktlari jarayonida namoyon bo‘ladi. Til kontakti mavjud bo‘lmasa bilingvizm haqida ham fikr yuritib bo‘lmaydi. Shuning uchun quyida til kontaktlari xususidagi qarashlarga to‘xtalishni o‘rinli deb hisoblaymiz. “Har bir tilning tarixiga nazar tashlansa, til kontaktlari sabab yuzaga kelgan

o'zgarishlarga guvoh bo'lish mumkin. Tashqi faktorlar ta'sirisiz tilning rivojlanishi mumkin emas, shu sabab "genetik jihatdan sof" tillar mavjud emas"[1], deb ta'kidlaydi tilshunos olim N.B.Mechkovskaya. Chindan ham, har bir tilning lug'ati o'zga tildan o'zlashgan so'zlar bilan boyib boradi. Hech bir til boshqa bir til bilan kontaktga kirishmasdan rivojlana olmaydi. Bunday nazariya dunyodagi barcha tillar uchun xos bo'lib, o'zga tillardan so'z o'zlashtirish dunyodagi tillar uchun umumiy qonuniyatdir. Demak, bir sistemaga yoki turli sistemaga oid bo'lgan tillarda til kontakti uchun maksimal yoki minimal darajadagi o'zlashma qatlam til kontakti uchun boshlang'ich bosqich amaliyoti hisoblanadi. Bu bilingvizm nazariyasidagi til kontaktining dastlabki bosqichidir. Aslida til kontaktini amalga oshirish bir sistemaga mansub tillar va ularni o'zlashtirish jarayonida eng qulay va samarali omil hisoblanadi. Bunday nazariyaning ilmiy asosi turdosh tillarga xos prosodik intonatsion modellarning bir xilligi yoki o'xshashligidadir. Turli sistemaga oid tillarni o'rganishda notanish intonatsion modellar til kontakti uchun noqulaylik hisoblanadi. Shu fikrlardan kelib chiqib, "til kontakti" termini ifodalagan tushuncha mohiyatini izohlash bilingvistik nazariya uchun muhim deb hisoblaymiz va til kontakti haqidagi qarashlarga to'xtalamiz.

"Til kontakti" atamasi ilk bor A.Martine (1952) tomonidan qo'llanilgan bo'lib, bu atama U.Vaynrayx tomonidan ham keng miqyosda qo'llanilgan. 1953 yilda olim qalamiga mansub "Til kontaktlari"[2] nomli asarning yaratilishi mazkur sohadagi qator masalalarga oydinlik kiritdi. Bu muammo keyinchalik E.Xaugen va boshqa tilshunos olimlarning nashr ishlarida ham o'z aksini topgan. Til kontakti nazariyotchilaridan G.Shuxardt esa "til kontakti" atamasining o'rniga "tillarning qorishishi" terminini qo'llashni taklif qiladi. Olim o'zining bir nechta ishlarini aynan shu masalalarga bag'ishladi va chet tilining ta'siri bo'lmagan til mavjud emas, qorishish chegara bilmaydi, har bir individ o'z ona tilini o'rganadi va boshqa individlar bilan muloqot jarayonida uni o'zgartiradi, deb ta'kidlaydi[3]. Biroq U.D.Uitni, E.Sepir kabi tilshunos olimlar "tillarning qorishishi" degan tushuncha mohiyatida ayrim noaniqliklar borligi sabab uni termin sifatida qabul qilinishi mumkin emas, deb ta'kidlaydi. Bu borada Boduen de Kurtene tomonidan ham

ahamiyatli fikrlar ilgari surilgan. Olimning ta'kidlashicha, tillar kontaktga kirishishi natijasida faqatgina u yoki bu til elementlari o'zlashishigina emas, balki tilning ayrim bo'laklariga xos bo'lgan, kuchli va zaif farqlanishida, ya'ni butun bir tizimning soddalashishida namoyon bo'ladi[4].

Til kontaktlari muammosi har doim tilshunos olimlarni qiziqtirib kelgan va o'z dolzarbligini yo'qotmayotgan masalalar sirasiga kiradi. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlar natijasida bu tushunchaga berilgan ta'riflarning xilma-xilligini ko'rishimiz mumkin. Tilshunos olim U.Vaynrayx "...bir turdagi kishilarning tildan navbatma- navbat foydalanishi natijasida ikki til o'zaro kontaktga kirishadi"[5], deb hisoblaydi. U.Vaynrayx ikki til kontakti natijasida bir xil shaxslar tomonidan tildan navbatma-navbat foydalanish vaqtida ushbu shaxslar nutqida bir nechta tillarni qo'llash har ikkala til me'yorlarini va aralashib ketishi kabi holatlarga guvoh bo'lish mumkinligini aytdi[6]. Til kontakti masalasidagi qarashlar turlicha bo'lsa-da, ular umumiy mohiyati jihatidan sohaga oid bir tizimdagi nazariyani tashkil qiladi.

Bugungi kunda til kontakti masalalari jahon tilshunosligida R.Appel va P.Muisken, A.Keffelek, S.Lafaj, K.May-ers-Skotton, M.M.Ngalasso, S.G.Tomason va T.Kaufman kabi olimlar bilan bir qatorda, rus tilshunoslik maktabi namoyandalari V.A.Vinogradov, V.M.Debov, V.T.Klokov, J.Bagana, N.B.Mechkovskaya, A.E.Karlinskiy, A.Y.Rusakovlarning izlanishlarida o'z aksini topgan.

Fanning tillar kontakti masalalari bilan shug'ullanuvchi sohasi kontakt lingvistikasi deb nomlanadi. Kontakt lingvistikasi tilshunoslikning boshqa tarmoqlari bilan qiyoslanganda nisbatan yosh va shakllanishning zamonaviy bosqichida turganligi bilan xarakterlanadi. Shu sabab mazkur soha atrofidagi muammolar va uning terminologiyasi doimiy ravishda yangilanib bormoqda. Bilingvizm, interferensiya, o'zlashmalar, konvergensiya, diglossiya, kalka kabi masalalar kontakt lingvistikasining asosiy masalalari sirasiga qiradi.

Til kontaktiga oid yuqoridagi nazariy qarashlar asosida sohaning o'ziga xos strukturasi ajratish zarur. O'zlashmalar til kontaktining tarkibiy qismi sifatida

e'tirof etiladi. O'zlashmalarga lingvistik lug'atlarda quyidagicha ta'rif beriladi. O'zlashmalar – chet tili elementlari (so'z, morfema, sintaktik qurilma va b.) ning bir tilning boshqa bir til bilan kontaktga kirishish natijasida olib kirilishi, shuningdek, mazkur elementlarning o'tish jarayonining o'zidir[7].

Boshqa tildan olingan, o'zlashtirilgan so'z, iboralar – o'zlashmalar va bilingvizm masalalari ham kontakt lingvistikasining bahsli mavzularidan biridir. O'zlashmalar jarayoni bilingvizm sharoitini talab qiladi. Tilshunos olim J.Bagana o'zlashmalar uchun til kontakti sharoiti kerak, lekin bilingvizm uchun bu sharoit zarur emas deb hisoblaydi. O'zlashmalar individual sharoitda emas, balki sotsial sharoitda vujudga keladi va ifodalanadi[8], deb yozadi olim. Kishi o'z nutqida ma'lum miqdorda o'zlashma so'zlardan foydalanishi, bu uning mazkur tilni bilingv darajasida egallagan, degan xulosaga olib kelmaydi (lekin bu tilimizdagi samolyot, aeroport, internet va shu kabi umumiy qabul qilingan baynalminal so'zlar emas). Nutqimizdagi “короче”, “сразу”, “в общем”, “отношение”, “уже” kabi so'zlar bir tomondan adabiy til me'yorlariga zid bo'lsa, ikkinchi tomondan so'zlovchining bu so'zlardan foydalanish uning rus tilini ona tili darajasida bilishidan dalolat bermaydi. Tilshunoslikda xorijiy tilga mansub bo'lgan bunday ajnabiy so'zlarni o'zlashmalik bosqichidan oldingi olinma, qo'llanma so'zlar termini bilan yuritish o'zbek tilshunosligidagi tilshunos olim qarashlarida ham qo'llaniladi[9].

O'zlashmalar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, mazkur mavzu bo'yicha tilshunoslikda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarni o'rganganimizda mazkur tushuncha haqidagi qarashlar xilma-xilligi va ayrim o'rinlarda bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, leksik o'zlashmalar yo'nalishidagi fikrlar ham ikki tarmoqqa bo'linganligiga guvoh bo'lamiz. Bir guruh olimlar (N.N.Amosova, L.Blumfeld, L.P.Krisin, A.P.Mayorov) o'zlashayotgan tilga chet tili elementlarining kirib kelishiga tilning ichki tizimi aspektlari doirasida yondashgan bo'lsa, boshqa bir guruh olimlar (V.M.Aristova, U.Vaynrayx, E.Xaugen) esa o'zlashmalarni ikkitillilik, tillararo va tizimlararo o'zaro ta'siri sharoitida vujudga keladi[10], deb hisoblashgan.

Bizning fikrimizcha, o'zlashmalarning paydo bo'lishi va shakllanishi uchun tillar, albatta, o'zaro kontaktga kirishishi lozim. Shuningdek, o'zlashmalar jamiyat va tildan ajralgan holda sodir bo'lmaydi. Sababi har qaysi til tizimi doimiy o'zgarishlarga yuz tutadi. Bu borada tilshunos olim A.Rosettining "qorishish elementlaridan to'laligicha holi bo'lgan til mavjud emas"[11], degan fikrlari masalaga oydinlik kiritadi. Tillarning o'zaro ta'siri esa aniq bir sabablarni taqozo etadi.

Boduen de Kurtene o'zlashmalarning lingvistik va nolingvistik sabablarini ko'rsatib o'tadi. O'zlashmalarning barcha holatlari til bilan bog'liq jarayonlar kabi tarix, geografiya, fiziologiya, psixologiya va hatto fizika, mexanika faktorlariga ham bog'liq bo'ladi[12].

Tilshunoslarning o'zlashmalar borasidagi yuqoridagi fikrlari turlicha ekanligini ko'rish mumkin. Bizningcha, o'zlashmalar asosan tillarning o'zaro kontaktga kirishishi natijasida sodir bo'ladi. Mazkur tushuncha borasida U.Vaynrayx, E.Xaugen, V.M.Aristova kabi tilshunos olimlar o'z qarashlarida haqli edilar.

Demak, tilshunoslikda til kontaktlari, bilingvizm, o'zlashmalar hodisasi tilshunoslik nazariyasining dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Bizga ma'lumki, til kontaktlari, ikkitillilik masalalarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan tadqiqotimizda yuqoridagi hodisalarni batafsil yoritishga va tilshunoslikning bu yo'nalishidagi ishlarni bir tizimga solishga harakat qildik. Bu masalani til sathlari doirasida o'rganish va tadqiq etish tilshunoslikda yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мечковская Н.Б. Общее языкознание. Структурная и социальная типология языков / Н.Б. Мечковская. - М.: Изд-во Флинта: Наука, 2001. - С. 102.
2. Вайнрайх У. Языковые контакты. – Киев: Вища школа, 1979. - С.22.
3. Йордан Й. Романское языкознание / Й. Йордан. - М.: Прогресс, 1971. – С. 87.

4. Розенцвейг В.Ю. Языковые контакты. Лингвистическая проблематика / В.Ю. Розенцвейг. - Л.: Наука, 1972. –С. 7-8 с.
5. Хауген Э. Языковой контакт Текст. / Э. Хауген // Новое в лингвистике. М., 1972. - Вып. VI. - С. 61.
6. Вайнрайх У. Языковые контакты. – Киев: Вища школа, 1979. - С.22.
7. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева. - М.: Изд-во Сов. Энциклопедия, 1990. - 524 с.
8. Багана Ж. Французский язык в Африке: проблемы интерференции /Ж. Багана. - М.: Наука, 2006. - 163 с.
9. Эҳсанова М.И. Бадий матнда ўзлашма ва қўлланмалар лингвопоэтикаси: Филол.фан. бўйича фалс.док (PhD) ... дисс.автореф. – Фарғона, 2022. -10 б.
10. [https://studref.com/320642/literatura/sootnoshenie_ponyatiy_zaimstvovanie_bilingvizm_interferentsiya\(murojaat_sanasi_18.03.2024\)](https://studref.com/320642/literatura/sootnoshenie_ponyatiy_zaimstvovanie_bilingvizm_interferentsiya(murojaat_sanasi_18.03.2024))
11. Росетти А. Смешанный язык и смешение языков / А. Росетти // Новое в лингвистике. - М., 1972. - Вып. XI. - С. 87-96.
12. Бодуэн де Куртене И. А. О смешанном характере всех языков / И. А. Бодуэн де Куртене // Избранные труды по общему языкознанию. - М.: Изд-во АН СССР, 1963.-Т.2.-С. 140-142.